



ISSN 2181-1709 (P)  
ISSN 2181-1717 (E)

2024/№6

# TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR

# ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

# EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH





Kakimov A. O. Globalshuv sharoitida milliy-ma'naviy qaderiyatlarni arash maxsusosi	262
Kudayqulova Sh.M. Zamonaviy yondashuvlarni urug' ushlashtrish asosida ta'llim berish metodologiyasi	265
Xamidova M. Aqli raif bolalarni azloqiy jihatdan tarbiyalash	270
Yusupova Sh.J. Sobirowa G.Q. Lug'atshunoslikning ota tili o'qitishdagi o'mi	273
Zakirova S.B. Bo'lajak logopediklari korreksionishlarni keyihalashtrishga o'rnatish metodikasini takomillashtirishga oq'yligan pedagogik talablar	278
Jumayeva F. F. Islam madaniyatasi tasavvufiy microsinning Shaxq Renessansida tutgan o'mi va hozirgi kundagi sharmiyati	282
Bosorova M. A. Repräsentation zenskulpturálnych ikon v postrealisticheskom diskursse U. Kamdzina i C. Afanasyeva	285
Safarova N. N. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyani shakllantirishdagi muammolar va te'siqlar	297
Azimova D.O. Matematika darslarida "bumerang" texnologiyasi	301
Engasheva T.Sh. Boshlang'ich sinif ota tili ta'llimida o'quv lug'atlarining muozami va sharmiyati	307
Betirov J. S. Taviriyya sa'rushda kompozitsiya asoslaridan biri manzara kompozitsiyasining ijodiy qobiliyatini o'stirishdagi sharmiyatiga	310
Shirinov A. L. O'quvchilarda taviriyya san'at asortanini badiy idrok etishni shakllantirishga innovation yondashuv yo'llari	314
Egamberdiev J. B. Takbi shaxsida o'z-o'zini angloshning rivojlanishiiga talim jazroyoti va maxitining tasini	317
Narkulov Sh. A. Bo'lajak matematikining shaxsiy va kasbiy asborot maydonini boyihalashda ijtimoiy turmoqlardan foydalananish madaniyatini o'ziga ahoz lizingiyatlari	321
<b>19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI</b>	
Afzaulov B.R. Bolalning boshlang'ich ruxri o'zgarishlari va tarbiyasida etnik madaniy qadriyatimiz beslikning robi.	325
Akramova L.YU. Применение методик арт-психологии для диагностики психологического статуса больных детей с эпиз-честистными травмами	329
Komilova M. Metodicheskoe i didakticheskoe obespechenie pri obuchenii detej s ogranichennymi vozmozhnostima zdorovya	332
Nurmukamedova L. Bolalarda nejironlikni kelib chiqish sabablari va xassiyatlari	338
Noekulova N.T. Almatova V.M.Ko'p dars qoldig'an o'quvchilarni o'qishga motivatsiyalashda o'qituvchining tutgan o'mi	342
Hanipa Yusupova. Психокоррекционная работа, проводимая с детьми с нарушением речи	347
Olimjanova Z. B.Er-notin o'tasidagi olib-nikob muosabatlari shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	350
Razmatova D.T.Er -notin o'tasidagi nizolarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlar	353
Rasulova N.T. Здоровое убеседение: пути поиска пути у молодежи	357
Nurmatov A.N. Yolg'on asborotning moyillikning tabiatini va maxsus-mohiyati	361
Samatova N.D. Nurmatova M.U. Xalq-atir va faoliyat motivatsiyasini maycen-briggening tipologik so'rovnomasi orqali talabchorda o'tkazilgan tadqiqot natijalarini tahlili.	365
Safarov O.M. Xasanov. K.O. Итоги экспериментального исследования	371
Turdiyeva N.G. Karakulova U.A. O'kaliyviy munosabatlardan abbing maqomining psixologik xususiyatlari.	375
Tulyaganova G. O.Shashning o'si individual imkoniyatlarini no'yoga chiqarish hodisasingining psixologik mohiyati	380
Xamidova F.Sh. Mehribuslik uyi tarbiyalanuvchilari aggressivlik xususiyatlarining o'ziga xedidi	385
G'urbullayeva D. M. O'smirlilik davrida o'z-o'ziga bo'lgan ishonchning shakllanishiga o'z-o'ziga bo'lgan munosabatning ta'sir	388
Khadzimba I.I. E. Влияние творческого интеллекта на концепт-стратегии личности (на примере студентов)	397



## O'QUVCHILARDA TASVIRIY SAN'AT ASARLARINI BADIY IDROK ETISHNI SHAKLLANTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUV YOLLARI

Shirinov Alisher Latipovich

Buxoro davlat universiteti, Tasviriy va amaliy san'at kafedrasи o'qituvchisi  
<https://orcid.org/0000-0001-7657-8712>

*Annotatsiya.* Muzkur magolada umumta lim maktablarida tasviriy san'at fanini o'qitishga innovatsion yondashuv yo'llari tasviriy san'at fani o'qituvchisini sinif doskasida juda chiroyli ishlay olishi va ko'rgazmali sinif doskasini tashkil qilish va o'quvchini tasviriy san'atga qiziqirish haqida to'liq bayon etilgan. Tasviriy san'at mashg'ulotlarida bolaning ko'rish a'zolari takomillashib boradi. Chunki har bir mavzuga doir mashg'ulotda narsalarni e'tibor bilan kuzatishga va ularni idrok etishga o'rgatib, o'z diqqat e'tiborini bir nuqtaga qaratish malakasini ham beriladi. Bu jarayon bolaning ixtiyoriy diqqati barqaror bo'lishini ham ta'minlaydi.

*Kelit so'zlar:* Tasviriy san'at, mashg'ulot, malaka, ko'rgazma, sinif, o'quvchi, san'at, dars.

## ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ФОРМИРОВАНИЮ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ВОСПРИЯТИЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ У СТУДЕНТОВ

Ширинов Алишер Латипович

Бухарский государственный университет, преподаватель кафедры изобразительного и  
прикладного искусства

*Абстрактный.* В данной статье рассматриваются инновационные подходы к преподаванию изобразительного искусства в общеобразовательных школах, умение учителя изобразительного искусства красиво работать на доске, организация визуального классной доски и интерес ученика к изобразительному искусству. интерес полностью объясняем. На занятиях изобразительным искусством у ребенка совершенствуются зрительные органы. Поэтому что на занятиях по каждому предмету учат внимательно наблюдать за предметами и воспринимать их, а также призывают умение концентрировать внимание на одной точке. Этот процесс также обеспечивает устойчивость пристального внимания ребенка.

*Ключевые слова:* Изобразительное искусство, обучение, мастерство, выставка, класс, ученик, искусство, урок.

## INNOVATIVE APPROACHES TO FORMING ARTISTIC PERCEPTION OF FINE ART WORKS IN STUDENTS

Shirinov Alisher Latipovich,

Bukhara State University, teacher of the Department of Fine and Applied Arts

*Abstract.* In this article, innovative approaches to the teaching of visual arts in secondary schools, the ability of the visual arts teacher to work beautifully on the blackboard, and the organization of a visual classroom blackboard and the student's interest in visual arts are discussed in this article. interest is fully explained. A child's visual organs improve during visual arts classes. Because in training on each subject, one is taught to observe things carefully and perceive them, and one is also given the skill to focus one's attention on one point. This process also ensures that the voluntary attention of the child is stable.

*Key words:* Fine art, training, skill, exhibition, class, student, art, lesson.

*Kirish.* Tasviriy san'at mashg'ulotlarida bolaning ko'rish a'zolari takomillashib boradi. Chunki har bir mavzuga doir mashg'ulotda narsalarni e'tibor bilan kuzatishga va ularni idrok etishga o'rgatib, o'z diqqat e'tiborini bir nuqtaga qaratish malakasini ham beriladi. Bu jarayon bolaning ixtiyoriy diqqati barqaror bo'lishini ham ta'minlaydi. Shuningdek, tasviriy san'at mashg'uloti o'quvchilarni e'tiborli zehn bilan faoliyat ko'rsatishga o'rgatib, ularni barcha his-tuyg'ularini jamlagan holda, o'ziga bo'lgan nazariy va amaliy bilimlarni ishga soladi. [1]

Umumta'lim maktablari o'quvchilari orasida san'at asarlarini badiy idrok etish ko'nikmalarini





shakillantirish borasida olib borilgan tadqiqot ishlari natijalari shuni ko'rsatadi, tasviriy san'at ta'limida badiiy ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda o'quvchilardagi individuallikni o'strishga alohida ahamiyat berish zarurligi, chunki u umumiy badiiy qobiliyatning tarkibiy qismi ekanligi;

- maxsus va ijodiy qobiliyatning psixofiziologik asosi har xil ekanligi;
- badiiy ijodiy qobiliyat turli yosh bosqichida turlicha ifoda etilishi;
- tadqiqotda qo'llanilgan tashxis metodikalarini orqali o'quvchidagi individuallikning turli qirralarini aniqlash;
- tashxis metodikalaridan umumiy rivojlanish darajasi, tasviriy san'at faoliyatini uchun zarur bo'lgan, amma o'quvchida yetarli rivojlanmagan tomonlarni aniqlash va shu asosda tegishli rivojlantiruvchi, korrektions dastur ishlab chiqish va maqsadli faoliyat olib borish; [2]

Bilim, ko'nikma va malakalar ta'limga yakuniy maqsadi bo'lmasdan ular o'quvchi shaxsidagi individuallikni rivojlantirish vositasi ekanligi, ijodkor shaxs kelgusida barcha faoliyatda ijodiy yondashuvni namoyon qiladi. Olimlarning filcricha, rassomlardagi individuallikdan ularning ijodiy va kasb faoliyatida janr kelib chiqadi, ya'mi ijodkor o'ziga mos bo'lgan alohida mehr qo'ygan janrini belgilab oladi va ijodining asosiy qismini shu janrga bag'ishlab, eng yaxshi asarlarini ham shu janrda yaratadi.

Rassomlar ijodiy faoliyatidagi individual uslub psixologik-pedagogik tafsifnomasini, ijodkorlar ijodiy faoliyatida zarur bo'lgan sifatlarni tarkibi va yetakchiligiga ko'ra uch guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruh sifatlarni neyrofiziologik tug'ma layoqat, tashqi muhit bilan o'ziga xos muloqot, uzoq vaqt irodani safarbar qilib, bir yoki turli ijodiy faoliyat olib borishga bo'lgan ehtiyoj va qobiliyat tashkil qiladi. O'quvchilar shaxs sifatlari jihatidan turlicha bo'lganligi sababli ba'zilar uchun topshiriq oson bo'lsa, faoliyatga qiziqish yo'qoladi, ba'zilarga vazifa murakkabroq tuyulsa, muvaffaqiyatsizlikdan o'zimi olib qochib, faoliyatini to'xtatadi, "bu menga to'g'ri kelmaydi", "bu men uchun qiziq emas" kabi vajlar bilan ijod qilishdan yoki vazifa bajarishdan bosh tortadi. Bunday o'quvchilarga tegishli suhbat, rag'batlantirish, psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash, stimullardan foydalananish kerakligi uqtirib o'tiladi. [3]

Ikkinchi guruh sifatlariiga tug'ma layoqat inkor etilmagan holda bilish jarayonlari, emotsiya, hissiyot singari xususiyatlardan kiradi.

Uchinchi guruh sifatlarining shakllanishida ijtimoiy muhit katta rol o'ynab, ular natijasida tarkib topgan shaxsning duryoqarashi, e'tiqodi, qiziqish-havaslari, hayotiy qadriyatlari, atrofsagilarga bo'lgan munosabati muhim o'rinn tutadi.

Ijodkor shaxs individualligidagi sifatlarni uch guruhga bo'lishdan maqsad o'quvchida qaysi guruh xususiyatlari etakchilik qilganda tasviriy san'at yaxshiroq o'zlashtirilishi, idrok etilishi va kimga qanday pedagogik ta'sir qilish zarurligini ko'rsatishdir. [4]

Shu boisdan tasviriy san'at fani o'qituvchisini sinf doskasida juda chiroyli ishlay olishi, uni chizgan rasm-tasvirlari, yozuvlari qoyil qoladigan darajada bo'lishi bilan birga, o'qituvchi har qanday mazmundagi kompozitsiyalarni osonlik bilan, juda aniq ishlashi va dars jarayonida sinf doskasida chizayotgan rasmi eg'zaki bayoni bilan bog'lanib borishi lozim. Bunday jarayon o'quvchilarni diqqatini o'ziga to'rtib, san'at asarlarini badiiy idrok qilish ko'nikmasini shakllanishiga hissa qo'shadi, uning barqarorligini ta'minlaydi. Shuningdek, o'quvchilarning o'qituvchilarga bo'lgan hurmat-e'tibori va hatto rassomchilik kasbiga bo'lgan mehr-muhabbati ham orta boradi.

Muhokama va natijalar. Tasviriy san'at fanini ko'rgazmalarsiz o'qitish mumkin emas. Buning uchun maktablarda tasviriy san'at kabinetini tashkil etish didaktik materiallarni tayyorlash kabinet ko'rgazma materiallariidan dars va boshqa mashg'ulotlarda foydalananishni kengaytirish o'qitish samaradorligini oshiradi.

Darhaqiqat, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quv-tarbiya jarayonini, xususan, tasviriy san'at o'quv jarayonini modernizatsiyalash, rassom-pedagog bo'ladigan mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat darjasini oshirishda o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni sohaga oid zamonaliviy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-tehnik innovatsiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalananish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko'nikmalarini takomillashtirish asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Bunda badiiy ta'lim bosqichlarining o'zaro mazmunan bog'liqligi, uziyiligi va uzlucksizligini ta'minlash, tasviriy san'at o'quv jarayonini tashkil etishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini joriy qilish, bu borada o'quv uslubiy majmuular sifatini ta'minlash, pedagogik texnologiyalarini joriy etishda



o'qituvchilarning kompyuter va internetdan foydalanish bo'yicha savodxonligini doimiy oshirib borish, umumiyl o'rta ta'lif maktablarida axborot resurs va zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan ta'minotini yanada rivojlantirish, tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishlarida ilg'or xonijiy tajribalarni o'rganish olib ta'lif muassasalarida rassom-pedagoglarning faoliyat yo'nalishlari tarkibini belgilaydi.

Yuqoridaagi fikrlardan ko'rniib turibdiki, umumiyl o'rta ta'lif maktablar tizimini xususan, tasviriy san'at ta'lif tizimini modernizatsiyalash o'quv jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvni talab etadi. Shunday ekan, tasviriy san'at ta'lifmga innovatsion yondashuv fikri ta'lif mohiyati va natijalarining shaxsga yo'nalganligi, ta'lif mazmuni, shakl, metod va vositalarini fan va texnikaning so'nggi yutuqlari, ilg'or tajribalar, zamonaviy metodikalar bilan uyg'unlashtirishga qaratilganligi bilan an'anaviy yondashuvdan farq qiladi.

Ta'lif tizimiga kiritilayotgan har qanday innovatsiya axborot va metodik ta'minotning mavjudligini ko'zda tutadi. Shuning uchun, tasviriy san'at o'quv jarayoniga innovatsiya kiritishda ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, tahsil qilish va unumlashtirish hamda amaliyotga tatbiq etish, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali o'quv jarayonlari mazmuni va metodlarini rivojlantirish asosiy yo'nalishlardan sanalsadi.

O'qituvchinining jadal faoliyatini o'quv faoliyatining muhim ko'rinishi sifatida paydo bo'lib, u ushbu harakating sub'ekti va tashkilotchisi sifatida faoliyat ko'rsatadi, o'quv faoliyatining muhim negizi va natijasi, mazkur faoliyatning sub'ekti o'quvchi hisoblanadi; muvaffaqiyatli o'quv faoliyatining asosiy ko'rsatkichi, uning natijasi o'quvchining fikrlash usullarini o'rganish va amaliy masalalarni ijodiy hal etish, erkin, mustaqil harakat qila olish ko'nigmalarini shakllantirishdan iborat; o'quv faoliyatning asosiy ko'rsatkichi o'quv topshiriqlari xisoblanadi. Bunda ta'lif jarayonining asosiy sub'ekti bo'lgan o'quvchida fikrlash, bilish harakati usullarini rivojlantiruvchi o'qitish taktikasi muhim o'rinn tutadi, o'quv faoliyatini amalga oshirish jarayoni o'quvchidan o'zining shaxsiy bilish mahorati va ko'nigmalarini o'zlashtirib olishi uchun zamin hozirlashdan iborat.

Xulosa. Professional san'at va san'atkorlar shu davrda paydo bo'ldi. San'at esa o'zining o'ziga xos xususiyatini, sintifiligini namoyon qilib, huksmon sinfning ideologiyasini targ'ib qiluvchi kuchli g'oyzaviy quroqla aylandi. Lekin shunga qaramay, omma omasidan yetishib chiqqan iste'dodli ijodkorlar mehnatkash xulq ommasining orzu-istaklarini, ularning go'zallik va xudbinlik, olyijanoblik va insonorvarlik haqidagi tushunchalarini yaqqol ko'rsatib beruvchi asarlar yaratdilar.

Xalqning turmushi, xulq va odatlari, yutuq va mag'lubiyatlari ularning asarlarida o'z ifodasini topdi. Har bir davrda bor bo'lgan ana shunday san'at hayat go'zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak hislat va fazilatlarini kamol toptirdi, ularni tenglik, ozodlik, birodarlik, yorqin kelajakka intilishga da'vat qildi.

#### REFERENCES

1. B.N.Oripov. Tasviriy san'atni o'qitish uslubiyoti.O'quv qo'llanma. N., 2001.
2. I.Yuldashev, I.Pulatov, M.Qurbanova "Tasviriy san'at asarlarini idrok etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish yo'llari" O'quv uslubiy qo'llanma.
3. Boymetov B, Abdirasilov S. Chizmatasvir. O'rta maxsus kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma.T., 2004.
4. Hasanov R. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlar. O'quv qo'llanma. 1,2 qismilar. – T:TDPU, 2006.